

БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ БИОЛОГИИ И ЭКОЛОГИИ

ТОМ 5, НОМЕР 1

JOURNAL OF BIOLOGY AND ECOLOGY

VOLUME 5, ISSUE 1



БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ БИОЛОГИИ И ЭКОЛОГИИ | JOURNAL OF BIOLOGY AND ECOLOGY

№1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0575-2023-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Миралимова Шахло Мирджамаловна
биология фанлари доктори, Ўзбекистон
Республикаси Фанлар академияси
Микробиология институти директор
ўринбосари

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Тошмухамедова Шохиста Собировна
биология фанлари доктори, Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий Университети
биология факультети, «биотехнология»
кафедраси профессори

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Нарбаева Хуршида Сапарбаевна

биология фанлари доктори, Ўзбекистон Республикаси Фанлар
академияси Микробиология институти Тупроқ микробиологияси
лабораторияси кичик илмий ходими

Шеримбетов Санжар Гулмирзоевич

биология фанлари доктори, профессор Ўзбекистон Республикаси
Фанлари академияси акад. О.С.Содиқов номидаги Биоорганик кимё
институти лаборатория мудири.

Кадырова Эльмина Мусрат

доцент, Бакинский государственный университет,
кафедра экологическая химия

Далимова Дилбар Акбаровна

кандидат биологических наук. к.б.н., с.н.с., зав.лаборатории
биологии Центра передовых технологий. Исследования в области
молекулярной генетики, Разработка современных тест-наборов для
клинико-биохимических исследований

Tea Мчедлури

доктор биологических наук,
Телавский государственный университет (Грузия)

Элова Нилюфар Арашовна

м.н.с. Института микробиологии АН РУз.

Жабборова Ойша Искандаровна

Бухоро давлат тиббиёт институти
“Тиббий биология” кафедраси мудири

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Omonova N.R., Bobonazarov G` Y., Rahimova M.S. QASHQADARYO VILOYATIDA NOVUZ BALIQCHILIK XO`JALIGINING FAOLIYATI HAMDA ISTIQBOLLARI.....	4
2. Рахимова Гулжоной Кодирберггановна ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЗАГРЯЗНЕНИЯ АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА НА ЗДОРОВЬЕ И УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ.....	8
3. Аскарлова Роза Исмаиловна ВЛИЯНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УРОВНЯ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ ВОЗДУШНО-КАПЕЛЬНЫМИ ИНФЕКЦИЯМИ НА УСПЕВАЕМОСТЬ И РЕЙТИНГ СТУДЕНТОВ.....	13
4. Палўанова Г.Ж., Байгелдиева Н.Ж. КЕМИРУВЧИЛАРНИНГ (ЯССИ ТИШЛИ КАЛАМУШ, УЙ СИЧҚОНИ, ЎТА ҲАВФЛИ ЮҚУМЛИ КАСАЛЛИКЛАРНИ ТАРҚАТИШДАГИ ЭПИЗООТОЛОГИК ВА ЭПИДЕМИОЛОГИК АҲАМИЯТИ.....	21
5. Begmatova M.X., Maxmadiyarova Y.N., Jumayeva M.Z. TESHIKBARG DALACHOY (HYPERICUM PERFORATUM) NING XOM – ASHYO FITOMASSASI.....	25
6. Емина Агиль Елчиева, Тунджай Бахшалиев Галиб, Нури Асим Рамин ЗАГРЯЗНЕНИЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	31



ISSN: 2181-0575

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF BIOLOGY AND ECOLOGY

БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ ЖУРНАЛИ | ЖУРНАЛ БИОЛОГИИ И ЭКОЛОГИИ

Omonova N.R.**Bobonazarov G. Y.****Rahimova M.S.**


Qarshi davlat universiteti,

O'zbekiston Respublikasi, Qarshi sh.

e-mail: n.omonova@qarshidu.uz

e-mail: g.bobonazarov@qarshidu.uz

QASHQADARYO VILOYATIDA HOVUZ BALIQCHILIK XO'JALIGINING FAOLIYATI HAMDA ISTIQBOLLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10372173>

ANNOTATSIYA

O'zbekistonda baliqchilikni sanoat asosida rivojlantirish o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Bugungi kunda esa qishloq xo'jaligining boshqa yirik sohalari qatorida baliqchilik ham xalq xo'jaligining serdaromad tarmog'iga aylandi. O'zbekistonda baliqchilik asosan, suv havzalarida baliq zahirasini ko'paytirish va sifatini yaxshilash bilan shug'ullanadi. Respublikamizda baliqchilikni rivojlantirish maqsadida intensiv usullardan foydalanish, seleksiya ishlari, zotli baliq turlarini o'rganish va ko'paytirish, oziqlantirishni takomillashtirish orqali xalqimizni sifatli baliq mahsulotlari bilan taminlash asosiy masalalardan biriga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston suv havzalari, ixtiofauna, Qashqadaryo viloyati, hovuz baliqchiligi, baliqchilik tarmog'i, tadqiqot usullari.

Омонова Н.Р.**Бобоназаров Г. Ю.****Рахимова М.С.**

Каршинский государственный университет,

Республика Узбекистан, Каршинское ш.

электронная почта: n.omonova@qarshidu.uz

электронная почта: g.bobonazarov@qarshidu.uz

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРУДОВОГО РЫБОЛОВСТВА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

АБСТРАКТ

Промышленное освоение рыбного хозяйства Узбекистана началось в 30-х годах прошлого века. Сегодня, наряду с другими крупными отраслями сельского хозяйства, рыболовство стало прибыльной отраслью народного хозяйства. Рыболовство в Узбекистане в основном занимается увеличением поголовья рыбы в водоемах и улучшением ее качества. В целях развития рыболовства в нашей республике одним из основных вопросов становится применение интенсивных методов, селекционная работа, исследование и разведение

племенных пород рыб, обеспечение нашего населения качественной рыбной продукцией за счет улучшения питания.

Ключевые слова: водоемы Узбекистана, ихтиофауна, Кашкадарьинская область, прудовое рыболовство, рыболовная сеть, методы исследования.

Omonova N.R.
Bobonazarov G. Y.
Rahimova M.S.

Karshi State University, Republic of Uzbekistan, Karshi sh.
e-mail: n.omonova@qarshidu.uz
e-mail: g.bobonazarov@zarshidu.uz

ACTIVITIES AND PROSPECTS OF POND FISHERIES IN KASHKADARYA REGION

ABSTRACT

Industrial development of fisheries in Uzbekistan began in the 30s of the last century. Today, along with other major branches of agriculture, fishing has become a profitable branch of the national economy. Fisheries in Uzbekistan are mainly engaged in increasing the stock of fish in water bodies and improving their quality. In order to develop fisheries in our republic, the use of intensive methods, selection works, research and breeding of breed fish species, and providing our people with quality fish products by improving nutrition are becoming one of the main issues.

Key words: water bodies of Uzbekistan, ichthyofauna, Kashkadarya region, pond fishing, fishing network, research methods.

Kirish

Baliqlar umurtqali hayvonlarning eng katta guruhi bo'lib, hozirgi vaqtda dunyo faunasida ularning 20000 dan oshiqroq turi mavjud. O'zbekiston suv havzalarida ushbu hayvonlarning 100 ga yaqin turlari tarqalgan. Bu turlarning 20 ga yaqini «O'zbekiston Qizil kitobi» ga (2006) kiritilgan. Turkiston, jumladan, O'zbekistonda Ixtiologiya sohasidagi dastlabki tadqiqotlar K.F.Kessler nomi bilan bog'liq. 1872 yilda uning «Turkiston ixtiofaunasi» asari chop etilgan. Turkiston baliqlari tug'risidagi materiallar S.M. Gersenshteyn asarlarida ham uchraydi. 1899-1903 yillarda SM Berg Orol dengizi. Sirdaryo, Balxash va Issiqko'l ixtiofaunasini o'rganib «Turkiston baliqlari» monografiyasini chop ettiradi 1928-yilda G.V.Nikolskiy Orol va Amudaryo suv havzalari baliqlari tug'risida malumot beradi. O'zbekistonning suv havzalari daryo, ko'llar, suv omborlari va kanallari baliqlarini o'rganish, bu havzalarda yangi baliq turlarini iqlimlashtirish maqsadida 1940 yilda akademik L.A. Zenkevich tashabbusi bilan Kaspiy dengizidan osetrsimonlarning ozuqasi hisoblanmish nerenda chuvalchangi sindesmiya mollyuskasi iqlimlashtirildi. O'tgan asrning 40 - yillarida osetrsimonlarning zahirasi keskin kamayib ketgan. Xuddi shu vaqtdan osetrsimonlarni ovlashni ta'qiqlashga qaratilgan qonun e'lon qilindi. MDH davlatlari hududida tarqalgan bakra baliqlarni sun'iy urchitish borasida F. V.Ovsyannikova O.A.GRIMM NA Borodin, A.N. Dejavin. N.L. Gerbil'skiy kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Mazkur tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari tufayli osetrsimon baliqlarni ko'paytirishga ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar va zavodlar qurilib ishga tushirildi. Jumladan, bunday zavodlarning eng birinchisi 1954 yilda Kurada ishga tushirildi va Kaspiy dengiziga osetr balig'ining 1 mlrd dan ortiq chavoqlari quyib yuborildi. O'zbekistonda bakra baliqlarining biologik xususiyatlarini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoga qilingan ekspeditsiyalarga rahbarlik qilgan olimlar tadqiqotlari bilan bog'liq. Jumladan, 1871 da rus geografi va sayohatchisi A. P. Fedchenko Sirdaryo soxta kurakburun balig'ini Mashhur tabiatshunos olim M.N.Bogdanov 1874 yilda Amudaryo katta soxta kurakburunini, akademik N.A.Seversov esa 1876 yilda Amudaryoda kichik qil quyruq yoki kurakburunni uchrashligini qayd etishgan. O'zbekistonda balikchilikni sanoat asosida rivojlantirish o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Bugungi kunda esa qishloq xo'jaligining boshqa yirik sohalari qatorida baliqchilik ham xalq xo'jaligining serdaromad tarmog'iga aylandi. O'zbekistonda

baliqchilik asosan, suv havzalarida baliq zahirasini ko'paytirish va sifatini yaxshilash bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PQ- 2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2018 yil 6 noyabrdagi PQ- 4005-son, "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir chora - tadbirlari" qarorlarida respublikamizda baliqchilikni rivojlantirish maqsadida intensiv usullardan foydalanish, seleksiya ishlari, zotli balik turlarini o'rganish va ko'paytirish, oziqlantirishni takomillashtirish orqali xalqimizni sifatli baliq mahsulotlari bilan taminlash asosiy masalalardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda Qashqadaryo hovuz baliqchilik xo'jaliklarida sazan, Afrika laqqasi, oq amur, osyotr va vietnam karpi baliqlari boqilib, xalqimizni baliqqa bo'lgan ehtiyoji qondirilmoqda. Viloyatda 2018 yilda 5658 ming tonna balik yetishtirilgan bo'lib, 2019 yilda 12 ming tonna, 2020 yilda 5441.5 tonna 2021 yilda 5323.3 tonna , 2022 yilda 5150.7 tonna, baliq yetishtirilgan [5]. Umuman olganda baliq va baliq mahsulotlariga talab nihoyatda katta. Qashqadaryo baliqchilik xo'jaliklari faoliyati hamda ularda boqiladigan baliqlarning hayot tarzini, biologiyasini, ekologiyasini hamda ko'paytirish va muhofaza qilish chora tadbirlarini o'rganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.


Bizning tadqiqotimizning maqsadi – Qashqadaryo viloyatida hovuz baliqchilik xo'jaliklarining faoliyati va istiqbollarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning obekti va metodi

2022 yili olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqib tadqiqotimizni Qashqadaryo viloyatidagi Qarshi tumanidagi "O'KTAM" BALIQ FERMASI" mas'uliyati cheklangan jamiyatida olib bordik. 2018-yilda tashkil etilgan mazkur hovuz baliqchilik xo'jaligida intensiv usulda baliq yetishtirish uchun 6 ta sun'iy havza, 8 va 4 sotixli bino-komplekslar yaratilgan. Ushbu tashkil etilgan hovuz baliqchiligi barcha talablarga javob beradi. Havzani to'ldirish artesian nasos yordamida amalga oshiriladi. Uning suv chiqarib yuborish qismi ga esa maxsus to'r setka qo'yilgan bo'lib bu baliqlarning chiqib ketmasligini ta'minlab turadi.

Tashkil etilgan hovuzda baliqchilikni va baliq yetishtirishni quyidagi usullaridan foydalanib ish olib borildi. Maqsad samaradorlikni oshirish.

Baliqchilik suv havzasining mineral o'g'itga bo'lgan talabini aniqlash uchun O'zbekistonda shu sohada shug'ullanayotgan olimlar I.M.Mirabdullayev, U.T.Mirzayevlar usullardan foydalanib hamda G.G.Vinberg, V.P.Lyaxnovich (1980) lar tomonidan tavsiya etilgan tadqiqotlardan: foydalanib aniqladik [3]. Bu usul shundan iboratki, suv havzasidan kolbaga suv olinadi va suvli kolbaga azot, fosfor, kaliy, kalsiy qo'shiladi. Tajriba natijasini, ya'ni kolbadagi suv o'tlari (diatom, ko'kyashil va yashil) miqdori sanaladi. Har bir o'g'it uchun alohida kolba olinadi. Mineral moddalar alohida beriladi. Mineral modda miqdori hisobga olinadi. So'ngra 5-7 kundan keyin kolbalardagi fitoplankton yoki suvda erigan kislorod miqdori hisobga olinadi va eng yuqori maksimal ko'rsatkich ajratib olinadi. Bu ko'rsatkich hovuzni o'g'itlash uchun asos bo'ladi [2]. Usul esa hovuzni o'g'itlashni biologik talabi deyiladi. O'tkazilgan tadqiqot natijalarimiz mineralga boy oziqalarni tayyorlashda yuqori samara berdi. Zotlarni takomillashtirishda tanlash bilan bir vaqtda naslli baliqlarni juftlashishiga ham juda katta e'tibor berildi. Ular yaxshini yaxshiga» qoidasiga rioya qilgan holda juftlashadi. Bu vaqtda baliqlarning sog'lig'iga, eksteryeriga, go'shtdorligiga, tangacha qoplami va boshqa xo'jalik uchun qimmatli belgilariga e'tibor berildi. Keyingi yillarda Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani hududlaridagi mavjud iqlim sharoitini hisobga olgan holda asosan oq va chipor do'ngpeshona kabi baliqlarni yetishtirishning istiqboli katta deb qaraldi, buning sababi respublikamizda quyoshli kun 210-220 kun va undan ham ko'proqni tashkil etadi bu esa oq va chipor do'ngpeshona baliqlarining ozuqasi bo'lgan fitaplanktonlarni yetilishi uchun juda qulay muhit hisoblanadi [4]. Ushbu muhit omillarini xisobga olgan holda oq va chipor do'ngpeshona baliqlarini yetishtirish yo'lga qo'yildi. Istiqbolli turlardan chukchansimonlar oilasiga tegishli baliqlardan katta og'izli bufala kichik og'izli bufala va xonaki bufala xisoblandi. Olingan mahsulot hisoblanganda katta og'izli bufalaning og'irligi 45 kg gacha, kichik og'izli bufalaning og'irligi 15-18 kg gacha qora bufala 7 kg gacha bo'ladi. Bufalalar issiqsevar bo'lganligi uchun bizni iqlimga juda tez moslashadi. Ushbu faktorlarni inobatga olib ushbu turlarni iqlimlashtirishni maqsad qilganmiz. (rasm 1)



Tadqiqot natijalari

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Quyi Beshkent qishlog'ida "O'KTAM BALIQ FERMASI" da 2018-y tashkil qilingan intensiv usul bilan baliq yetishtirishga moslashgan hovuz baliqchiligida sazan, Afrika laqqasi, oq amur, osyotr va vetnam karpi baliqlarni chavoqlaridan ko'paytirildi. Ko'paytirish natijasida bu zot baliqlar ushbu muhitga moslashganligi ma'lum bo'ldi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib ushbu zot baliq turlarini ko'paytirishni maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Kelgusida hovuzlar soni kengaytirib baliq zotlarini turlarini moslashtirish va ularga xos bo'lgan ozuqa bilan ta'minlashni vazifa qilib oldik. Rivojlantirilayotgan baliq zotlarini toza suv bilan taminlash uchun artezian quduqlari tashkil etildi. Suvning hovuzga kirish joyiga to'r setkalar o'rnatildi. 2018-yil tashkil etilgan hovuz baliqchilik xo'jaligida 1015 kg baliq mahsuloti yetishtirishga erishildi. Natijada Qarshi tumani Quyi Beshkent qishlog'i aholisini sifatli baliq mahsulotlari bilan ta'minlashga muvofaq bo'ldi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017-yil .
2. Жура, Х. Б. (2021). QASHQADARYO VILOYATI CHO'L SHAROITIDA HOVUZ BALIQCHILIGINI TASHKIL QILISH ISTIQBOLLARI. Журнал Биологии и Экологии, 3(1).
3. Наумов С.П. Умурткали хайвонлар зоологияси (А.Абдуллаев таржимаси). Тошкент. 1995 йил. «Укитувчи нашриёти.
4. Омонов А. Мирзаев У. Узбекистон баликлари. Топкент, «Фан» 1992 5 Husenov S.
5. O`zR Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlar.

БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ ЖУРНАЛИ

4 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ БИОЛОГИИ И ЭКОЛОГИИ

ТОМ 4, НОМЕР 3

JOURNAL OF BIOLOGY AND ECOLOGY

VOLUME 4, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000